



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024- yil 1- may holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 12 768 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 10 522 ta).




Shuningdek, ushbu davrga 20 820 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 107,4 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar *fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- may holatiga ko‘ra, birlikda.*

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar*yanvar-aprel oylari holatiga ko‘ra, birlikda***Yillar kesimida soni****Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)****Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 754 tani tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 32,9 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 22,9 foiz, sanoat – 16,3 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida – 21,5 foiz, Oqoltin – 13,4 foiz, Mirzaobod – 10,2 foiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	162	5,4 %	Boyovut t.	62	5,3 %
Oqoltin t.	101	12,0 %	Xovos t.	54	6,8 %
Mirzaobod t.	77	5,0 %	Yangiyer sh.	45	5,0 %
Sirdaryo t.	72	4,5 %	Sayxunobod t.	44	4,6 %
Guliston t.	66	6,7 %	Shirin sh.	7	2,1 %
Sardoba t.	64	6,5 %			

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yil 1- may holatiga 12 768 tani tashkil etdi.



Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,1 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,7 foiz, sanoat – 10,8 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida – 23,6 foiz, Sirdaryo – 12,6 foiz, Boyovut – 9,2 foiz va Mirzaobod – 8,8 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	3 019	Sayxunobod t.	957
Sirdaryo t.	1 605	Yangiyer sh.	904
Boyovut t.	1 180	Oqoltin t.	844
Mirzaobod t.	1 118	Xovos t.	795
Sardoba t.	1 022	Shirin sh.	336
Guliston t.	988		

2024- yil yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar


Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 723 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	151	6,2 %	Boyovut t.	60	6,4 %
Oqoltin t.	99	13,8 %	Xovos t.	53	8,6 %
Mirzaobod t.	76	8,0 %	Sayxunobod t.	43	5,4 %
Sirdaryo t	69	5,1 %	Yangiyer sh.	40	5,1 %
Guliston t.	64	7,8 %	Shirin sh.	6	2,3 %
Sardoba t.	62	7,0 %			

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- may holatiga 10 594 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,7 foiz, sanoat – 13,0 foiz, qurilish – 8,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,2 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,3 foiz, boshqa turlari – 9,0 foiz.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 454	Sayxunobod t.	791
Sirdaryo t.	1 349	Yangiyer sh.	790
Mirzaobod t.	954	Oqoltin t.	718
Boyovut t.	944	Xovos t.	618
Sardoba t.	888	Shirin sh.	266
Guliston t.	822		

2024- yil yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2024- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 23,8 foiz, hamda sanoat – 16,9 foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	151	6,2 %	Boyovut t.	60	6,4 %
Oqoltin t.	99	13,8 %	Xovos t.	53	8,6 %
Mirzaobod t.	76	8,0 %	Sayxunobod t.	43	5,5 %
Sirdaryo t	69	5,2 %	Yangiyer sh.	40	5,1 %
Guliston t.	64	7,8 %	Shirin sh.	6	2,3 %
Sardoba t.	62	7,0 %			

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (23,1 foiz), Sirdaryo (12,7 foiz), Mirzaobod (9,0 foiz) va Boyovut (8,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 53,7 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 433	Sayxunobod t.	786
Sirdaryo t.	1 334	Yangiyer sh.	785
Mirzaobod t.	947	Oqoltin t.	717
Boyovut t.	939	Xovos t.	613
Sardoba t.	886	Shirin sh.	263
Guliston t.	819		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Sardoba t.	337
Mirzaobod t.	320
Oqoltin t.	288
Sayxunobod t.	249
Boyovut t.	187
Guliston t.	183
Sirdaryo t.	167
Xovos t.	143
Guliston sh.	79
Yangiyer sh.	32
Shirin sh.	18



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Guliston sh.	271
Sirdaryo t.	226
Boyovut t.	157
Yangiyer sh.	147
Mirzaobod t.	129
Sayxunobod t.	116
Guliston t.	92
Xovos t.	92
Sardoba t.	62
Oqoltin t.	46
Shirin sh.	38



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 10,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,7 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 0,9 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	339
Mirzaobod t.	90
Sirdaryo t.	87
Yangiyer sh.	69
Guliston t.	64
Boyovut t.	63
Sayxunobod t.	53
Xovos t.	44
Oqoltin t.	44
Shirin sh.	38
Sardoba t.	37



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 52,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 26,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 21,5 foiz ulushni tashkil etdi.

246



Fuqarolik
obyektlarini qurish

199

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

483


Bino va
inshootlar qurish



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 084
Sirdaryo t.	578
Boyovut t.	359
Guliston t.	345
Sardoba t.	340
Yangiyer sh.	314
Mirzaobod t.	273
Sayxunobod t.	244
Oqoltin t.	233
Xovos t.	210
Shirin sh.	116



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 4 087 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,6 foiz ulushni tashkil etdi.

351

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 181

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


2 564

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	168
Sirdaryo t.	79
Boyovut t.	69
Yangiyer sh.	65
Guliston t.	53
Sayxunobod t.	46
Oqoltin t.	43
Sardoba t.	42
Mirzaobod t.	41
Xovos t.	34
Shirin sh.	18



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 658 tani tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 4,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 95,4 foiz ulushini tashkil etdi.

30

Yashash bo'yicha xizmatlar



628


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Guliston sh.	74
Yangiyer sh.	20
Sirdaryo t.	19
Boyovut t.	17
Guliston t.	10
Shirin sh.	8
Mirzaobod t.	7
Sardoba t.	7
Oqoltin t.	6
Xovos t.	4
Sayxunobod t.	3



2024- yil 1- may holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,9 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 30,3 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 46,8 foizini tashkil etdi.



2024- yil 1- may holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	85
Sirdaryo t.	32
Yangiyer sh.	22
Guliston t.	8
Mirzaobod t.	8
Sayxunobod t.	7
Xovos t.	7
Sardoba t.	7
Boyovut t.	5
Oqoltin t.	5
Shirin sh.	3



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 135 ta yoki 71,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 90,5 foizi sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat yoʻnalishiga toʻgʻri keladi;
- yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,3 foizini tashkil etdi.

12

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

6




171

Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Guliston sh.	64
Sirdaryo t.	42
Yangiyer sh.	40
Xovos t.	37
Mirzaobod t.	35
Sayxunobod t.	26
Boyovut t.	25
Oqoltin t.	14
Guliston t.	12
Sardoba t.	8
Shirin sh.	5



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo'nalishining 72,7 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 24,0 foizni tashkil etdi;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 3,3 foizni tashkil etdi;



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2024- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi, %




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	136	6,8 %	Boyovut t.	44	5,9 %
Oqoltin t.	98	14,9 %	Xovos t.	43	7,9 %
Sirdaryo t.	65	5,4 %	Yangiyer sh.	38	5,5 %
Sardoba t.	61	7,5 %	Sayxunobod t.	36	5,5 %
Mirzaobod t.	61	7,4 %	Shirin sh.	5	2,3 %
Guliston t.	49	7,6 %			


2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 10 594 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 8 982 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 39,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,0 foiz hamda sanoat – 12,1 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 991	Oqoltin t.	658
Sirdaryo t.	1 203	Sayxunobod t.	657
Mirzaobod t.	821	Guliston t.	645
Sardoba t.	812	Xovos t.	545
Boyovut t.	740	Shirin sh.	219
Yangiyer sh.	691		

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- may holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib, xususiy korxonalarining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Guliston shahri - 357 ta, Boyovut - 128 ta, Guliston - 108 ta va Sirdaryo tumanlarida -108 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan; savdo sohasida – 465 ta, sanoat – 126 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 124 ta va qurilish sohasida – 102 ta.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	357	Mirzaobod t.	66
Boyovut t.	128	Sardoba t.	44
Guliston t.	108	Xovos t.	42
Sirdaryo t.	108	Oqoltin t.	41
Sayxunobod t.	96	Shirin sh.	31
Yangiyer sh.	68		


2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- may holatiga ko'ra 319 ta, 2023- yilning mos davriga nisbatan 73 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 56 tadan 75 taga (o'sish 19 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi – 53 tadan 97 taga (o'sish 44 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	74	Sayxunobod t.	14
Boyovut t.	54	Shirin sh.	13
Guliston t.	49	Xovos t.	13
Mirzaobod t.	39	Oqoltin t.	10
Yangiyer sh.	24	Sardoba t.	6
Sirdaryo t.	23		

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,2 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 62 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 15,0 foiz), Turkiya (ulushi 11,7 foiz), Qozog'iston (ulushi 11,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Sirdaryo t.	56	Boyovut t.	10
Guliston sh.	44	Xovos t.	10
Mirzaobod t.	28	Oqoltin t.	7
Yangiyer sh.	27	Shirin sh.	6
Sayxunobod t.	10	Sardoba t.	5
Guliston t.	10		

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 92 tasi qo'shma korxonalar, 121 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

24	Sirdaryo t.	32
28	Guliston sh.	16
14	Mirzaobod t.	14
18	Yangiyer sh.	9
8	Guliston t.	2
8	Boyovut t.	2
7	Sayxunobod t.	3
3	Oqoltin t.	4
1	Sardoba t.	4
8	Xovos t.	2
2	Shirin sh.	4

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

2024- yil 1- may holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29 taga ko'payib, 213 tani tashkil etdi.

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 67 236 70 00